



OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI MILLATLARARO BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Shabbazova Nodira

*Termiz davlat pedagogika institute Boshlang'ich ta'limda matematika
va ona tili kafedrasi o'qituvchisi*

nodirashabbozova@gmail.com +998942657465

Usmonova Dilnura

*Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 24-01-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalarida millatlararo bag'rikenglik va etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Maqolada xalqaro huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasining yoshlar siyosatiga oid ustuvor yo'nalishlari hamda etnopedagogika manbalaridan ta'lim jarayonida foydalanish mexanizmlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Bag'rikenglik, oliy ta'lim, globallashuv, etnopedagogika, etnomadaniy kompetensiya, millatlararo hamjihatlik, tarbiya, qadriyat

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические основы формирования межэтнической толерантности и этнокультурной компетентности у студентов высших учебных заведений в контексте глобализации. Анализируются международно-правовые инструменты, приоритетные направления молодежной политики Республики Узбекистан и механизмы использования этнопедagogических ресурсов в образовательном процессе.

Ключевые слова: Толерантность, высшее образование, глобализация, этнопедagogика, этнокультурная компетентность, межэтническая гармония, образование, ценности

Abstract. This article discusses the pedagogical foundations of the formation of interethnic tolerance and ethnocultural competence in students of higher educational institutions in the context of globalization. The article analyzes international legal instruments, priority areas of youth policy of the Republic of Uzbekistan, and mechanisms for using ethnopedagogical resources in the educational process.

Keywords: Tolerance, higher education, globalization, ethnopedagogy, ethnocultural competence, interethnic harmony, education, value

Bugungi kundagi, ya'ni globallashuv va madaniyatlararo muloqot jadallashgan davrda yosh avlodni, xususan oliy ta'lim muassasalarining talabalarini millatlararo



bag'rikenglik va hamjamiyatlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Muhtaram Prezidentimiz davlat mustaqilligimizning 30 yilligi bayramiga bag'ishlangan tantanali bayram tadbirida so'zlagan nutqlarida "Bugungi kunda islohotlarimiz talabi, hayotning o'zi oliy ta'lim sohasini jadal rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu bois yurtimizda so'nggi 5 yilda 64 ta yangi oliy ta'lim muassasasi tashkil etilib, ularning soni 141 taga yetkazildi. Qabul kvotasi 3 barobar oshirildi. Endilikda bitiruvchi yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2016 yilgi 9 foizdan – shunga e'tibor bering – 28 foizga yetkazildi. Yaqin kelgusida ushbu ko'rsatkichni 50-60 foizga yetkazish mo'ljallanmoqda" – degan fikrlarni ta'kidlab o'tdilar. Shu jumladan yana shuni ta'kidlab o'tish joizki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'lim va yoshlar siyosatiga oid farmon va qarorlarida belgilanganidek, yoshlarni vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan sodiqlik va hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, oliy ta'limning ko'p madaniyatli muhitida talabalarning o'zaro hamjihatligini ta'minlash, ularda bag'rikenglik ko'nikmalarini rivojlantirishning metodologik tizimini takomillashtirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Bugungi kundagi oliy ta'lim tizimining asosiy maqsadi faqatgina mutaxassis tayyorlash emas, balki shaxsni ijtimoiy hayotga moslashtirishdir. O'zbekiston kabi ko'p millatli mamlakatda talaba-yoshlar ongida o'zga millat vakillarining madaniyati va qadriyatlariga nisbatan hurmat hissini shakllantirish nafaqat ijtimoiy barqarorlikni, balki kelajakdagi professional kadrlarning ma'naviy qiyofasini ham belgilaydi.

Bag'rikenglik – bugungi kunda jamiyatdagi tinchlik, barqarorlik va rivojlanishning eng muhim kafolati hisoblanadi. U turli millat, din va madaniyat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, hamjihatlikni ta'minlab, mojarolarning oldini oladi va strategik taraqqiyotni qo'llab-quvvatlaydi. Globallashtirish davrida madaniyatlararo muloqot va xavfsizlikni saqlashning asosi hisoblanadi. Bugungi kunda oliy ta'lim – bu bizning ko'z o'ngimizda o'zgarishlar ro'y berayotgan sohalardan biri hisoblanadi.

Butun dunyoda har yili 16 noyabrni – Xalqaro bag'rikenglik kuni sifatida nishonlash ezgu an'anaga aylangan. Ushbu muhim sana munosabati bilan turli mamlakatlarda maxsus dasturlar asosida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etiladi. Sayyoramizning har bir mintaqasida o'quv muassasalari, hukumatlararo va nohukumat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan fuqarolar o'rtasida bag'rikenglik g'oyalarini tarqatishga da'vat etiladi. Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasida qayd etilganidek, bag'rikenglik alohida odamlar o'rtasida, oila va jamoadagi o'zaro munosabatlarda zarurdir. Maktablarda va universitetlarda, norasmiy ta'lim yo'li bilan uyda va ish joylarida bag'rikenglik ruhini mustahkamlash va kishilar o'rtasida bir-biriga ochiqlik, e'tibor va birdamlik munosabatlarini shakllantirish lozim. Bunda kommunikatsiya vositalari erkin, ochiq muloqot va muhokamaga ko'maklashishda, bag'rikenglik qadriyatlarini tarqatishda, ayniqsa, bosh ko'tarayotgan



murosasizlikni targ'ib qiluvchi guruhlar va mafkuralarga nisbatan befarq munosabatda bo'lish xavfli ekanini tushuntirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

“Bag'rikenglik” tushunchasi nimani anglatadi? Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasida ushbu tushunchaga uchta muhim va qamrovdor ta'rif berilgan.

Birinchi ta'rif: Bag'rikenglik – bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va etiqod vujudga keltiradi. Bag'rikenglik –turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma'naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag'rikenglik tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir.

Ikkinchi ta'rif: Bag'rikenglik – yon berish, andisha yoki xushomad emas. Bag'rikenglik – eng avvalo insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Hech qanday vaziyatda ham bag'rikenglik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo'lib xizmat qilmaydi. Bag'rikenglikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.

Uchinchi ta'rif: Bag'rikenglik – inson huquqlarini qaror toptirish, plyuralizm (shu jumladan, madaniy plyuralizm), demokratiya va huquqning tantanasi uchun ko'maklashish majburiyatidir. Bag'rikenglik – aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda o'rnatilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir.

Mamlakatimizda davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri – bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqaroviy o'zaro ahillikni mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashdir. Bu haqda so'z yuritganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ushbu yo'nalishda yaratilgan va yaratilayotgan barcha zarur sharoitlar uchun mustahkam huquqiy asos ekanini ta'kidlash lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida bag'rikenglik siyosatiga alohida e'tibor qaratilgan. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, “O'zbekiston – ulkan imkoniyat va boyliklarga ega mamlakat. Lekin bizning eng katta boyligimiz – turli millat va elatlar, diniy konfessiyalar vakillari o'rtasidagi tinchlik va barqarorlik, o'zaro hurmat va hamjihatlikdir”.

BMT Bosh Assambleyasining 73-sessiyasida ushbu nufuzli xalqaro tashkilotga a'zo davlatlar tomonidan yakdillik bilan qabul qilingan mazkur Rezolyusiyaga 50 dan ortiq mamlakat hammuallif bo'lish istagini bildirgani bejiz emas. Binobarin, Rezolyusiyada ma'rifat, tinchlik, inson huquqlari, bag'rikenglik va do'stlikni ilgari surish qanchalik muhimligi, shuningdek, dunyoda xavfsizlik va tinchlikni mustahkamlash uchun integratsiya, o'zaro hurmat, inson huquqlarini himoya qilish, bag'rikenglik va o'zaro tushunishning ulkan ahamiyati e'tirof etilgan.



Talabalarning milliy qadriyatlar va manbalarga tayangan holda bilim olishi mahalliy ta'lim tizimining taraqqiyotiga xizmat qiladi. Hozirgi kunda "etnik paradoks" deb ataluvchi etnik renessans jarayonlari turli ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Bunga misol tariqasida qadimiy marosim va an'analarning qayta tiklanishi, bayramlarda folklor namunalaridan keng foydalanish, xalq hunarmandchiligining jonlanishi hamda milliy davlatchilik asoslarining mustahkamlanishini keltirish mumkin. Oliy ta'lim sharoitida talabalarda etnomadaniy kompetentlikni shakllantirish uchun quyidagi pedagogik mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq: pedagogika va psixologiya yo'nalishidagi talabalar uchun o'quv talablarini eng samarali va zamonaviy metodlar yordamida amalga oshirish; yoshlarning madaniy bilimlarini oshirish orqali ularni umumiy ezgu maqsadlar atrofida birlashtirish; ilmiy-izlanishlar va loyihalar mazmunini bevosita etnomadaniy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirish; talabalarning milliy o'zligini namoyon qilishi uchun turli madaniy tadbirlarda ishtirokini rag'batlantirish; turli millat vakillarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish orqali talabalarning ijtimoiy muhitga moslashuvini ta'minlash; ta'lim jarayonida milliy-hududiy omillardan foydalangan holda, yoshlarni ham o'z xalqi, ham jahon sivilizatsiyasi boyliklari bilan tanishtirish; dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda etnomadaniy yo'nalishdagi interfaol texnologiyalarni qo'llash; talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish hamda o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni qaror toptirish; oliy ta'lim muassasasining oila va milliy madaniy markazlar bilan ijtimoiy hamkorligini tizimli yo'lga qo'yish.

Bugungi kunda pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligida «Etnopedagogika» fani markaziy o'rin egallaydi. Mazkur fan doirasida talabalarga qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda o'z aksini topgan barkamol shaxs tarbiyasiga oid qarashlar va ularning mazmun-mohiyati tizimli ravishda tushuntiriladi. Xususan, o'zbek xalq pedagogikasining ko'p asrlik taraqqiyot bosqichlari, xalq og'zaki ijodi namunalarining rang-barangligi, jumladan, maqol va matallar, topishmoqlar, olqish va duo-fotihalarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqimizning boy madaniy merosi hisoblangan marosim folklori, milliy qo'shiq va dostonlar, shuningdek, askiya va xalq dramalarining yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan yuksaltirishdagi pedagogik ahamiyati alohida o'rganiladi. Bu kabi manbalar talabalarda nafaqat milliy g'ururni, balki boshqa millat madaniyatlariga nisbatan hurmat va bag'rikenglik (tolerantlik) tuyg'ularini shakllantirishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi, turli millat va madaniyat vakillarining o'zaro integratsiyasi sharoitida oliy ta'lim muassasalarida talabalarni millatlararo bag'rikenglik ruhida tarbiyalash dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ko'p millatli jamiyat sharoitida yoshlarning tolerantlik, o'zaro hurmat, milliy qadriyatlarga ehtirom va umuminsoniy tamoyillarga sodiqlik ruhida shakllanishi ijtimoiy barqarorlikning muhim omilidir.



Shuningdek, millatlararo bag'rikenglikni shakllantirish jarayoni tizimli, uzluksiz va kompleks yondashuv asosida tashkil etilgandagina samarali natija beradi. Bu jarayonda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari, ijtimoiy hamkorlik va talabalar o'zini o'zi boshqarish tizimining faolligi muhim ahamiyat kasb etadi. oliy ta'lim muassasalarida talabalarni millatlararo bag'rikenglik ruhida tarbiyalash pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo'lib, u ijtimoiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda ilmiy asoslangan metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biridir.

Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari yagona va ahil oila bo'lib yashayotgani, fidokorona mehnati bilan jonajon O'zbekistonimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shayotgani ayniqsa quvonarlidir. Biz bunday bebaho boylik bilan haqli ravishda faxrlanamiz va bu bizning bebaho boyligimiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosatiga oid farmon va qarorlari (2017–2023 yy.).
3. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi veb sayti <http://nhrc.uz/oz>
4. Pedagogika / M. Tolipov, N. Sayidahmedov. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
5. Pedagogika nazariyasi va tarixi / O. Hasanboyeva va boshqalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
6. Begmatova N.X. Bo'lajak pedagoglarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish: Ped. Fan. Dok. (phd) diss. Avtoref. – Qarshi, 2023. – 54 b.